

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Э.И.Ибрагимова, З.Т.Исаева Теоретические основы лексической системы языка в рамках синтагматики и парадигматики.....	203
Z.V.Alimova Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida “Xud” so’zi va uning morfologik belgilari xususida	208
M.M.Asranova O‘zbek tilida siyosiy diskurs individualligini ta’minlovchi leksik va morfologik vositalar	213
O.M.Khudoyberdieva The significance of using idioms and collocations in english and uzbek dance terminology	218
G.S.Xolmurotova Tilshunoslikda terminologik tizimning aksiologik jihatlari.....	222
N.H.Sayfullayev, A.A.Mirzayeva Alisher Navoiyning “Nasoyim Ul-Muhabbat” asaridagi arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar tahlili	226
N.A.Abdullayeva Tozalikning kishi salomatligiga ta’siri haqidagi o‘zbek va ingliz xalq maqollarining semantik tahlili	229
M.T.Qodirova Biznes diskursini metonimik modellashtirish.....	233
D.N.Satimova Ingliz va o‘zbek tillarining ekzistensial va noekzistensial shakllari: substandart leksik birliklar	240
V.A.Tangriyev Paulo Koeloning “Alkimyogar” asarining inglizcha va o‘zbekcha tarjimalaridagi paralingvistik vositalar	247
V.A.Giyosova Murojaat birliklarida aksiologik modallik ifodasi	254
R.Kahramanova The values of morphological indicators of quantitative words in dialects recorded on ancient monuments.....	260
I.M.Ataboyev Ta’na-dashnom konseptining madaniyatlararo farqlari: Ingliz va boshqa tillarda foydalanishni qiyosiy o‘rganish	264
M.E.Qodirova O‘zbek va ingliz tillarida san’atga oid terminlarning klassifikatsiyasi	270



UO'K: 811.512.133'42:811.111'42

O'ZBEK TILIDA SIYOSIY DISKURS INDIVIDUALLIGINI TA'MINLOVCHI LEKSIK VA MORFOLOGIK VOSITALAR**ЛЕКСИЧЕСКИЕ И MORFOЛОГИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ ИНДИВИДУАЛЬНОСТЬ ПОЛИТИЧЕСКОГО ДИСКУРСА В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ****LEXICAL AND MORPHOLOGICAL MEANS ENSURING THE INDIVIDUALITY OF POLITICAL DISCOURSE IN THE UZBEK LANGUAGE****Asronova Mohigul Musaboyevna** 

Andijon davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya

O'zbek tili siyosiy diskursining turli masalalari doirasida ayrim tadqiqotlar e'tiborga molikligi, xususan, siyosiy diskurs haqida ayrim mulohazalar, siyosiy diskursda qo'llanuvchi bog'lovchi fe'llarning funksional-semantik tadqiqi, siyosiy diskursning o'zbek va ingliz tillardagi so'zlovchining siyosiy diskursdagi obrazi, adresat qobiliyati yoki adresat omili, axborot tarkibi, maqsadga yo'naltirilganlik kabi semantik-pragmatik xususiyatlari; siyosiy diskursda alliteratsiya, takror, parallelizm, metafora, aforizm va evfemizm kabi stilistik vositalardan ingliz tili bilan birga o'zbek tilshunosligida ham faol foydalanish kabi masalalar atroficha tahlil etilgan.

Аннотация

Значимость некоторых исследований в рамках различных вопросов политического дискурса узбекского языка, в частности, некоторых комментариев о политическом дискурсе, функционально-семантического изучения глаголов-связок, используемых в политическом дискурсе, слов политического дискурса. семантико-прагматические характеристики дискурса на узбекском и английском языках, такие как образ адресата в политическом дискурсе, способности адресата или фактор адресата, информативность, целевая направленность; Подробно проанализированы такие вопросы, как активное использование в политическом дискурсе таких стилистических средств, как аллитерация, повтор, параллелизм, метафора, афоризм и эвфемизм, как в узбекском языкознании, так и в английском языке.

Abstract

The importance of some studies within the framework of various issues of the political discourse of the Uzbek language, in particular, some comments about the political discourse, the functional-semantic study of the connecting verbs used in the political discourse, the words of the addressee in the political discourse in the Uzbek and English languages semantic-pragmatic characteristics such as the image of the addressee in the political discourse, the ability of the addressee or the factor of the addressee, information content, goal orientation; Issues such as the active use of stylistic tools such as alliteration, repetition, parallelism, metaphor, aphorism and euphemism in political discourse in Uzbek linguistics as well as in English have been thoroughly analyzed.

Kalit so'zlar: diskurs, morfologik, leksik, siyosiy diskurs, individual, madaniyat, axborot, diskursiv tahlil.

Ключевые слова: дискурс, морфологический, лексический, политический дискурс, личность, культура, информация, дискурсивный анализ.

Key words: discourse, morphological, lexical, political discourse, individual, culture, information, discursive analysis.

KIRISH

Ijtimoiy-siyosiy terminologiyaga oid tadqiqotlar ham mavjud: ularda ham qisman siyosiy lingvistika masalalari muhokama qilingan. Siyosiy diskursning siyosatchilar, xususan, deputatlar misolida ularning saylov kompaniyalaridagi nutqi ham tadqiq obyekti bo'lgan.

Ammo siyosiy diskursning xususiyatini ifodalovchi vositalar maxsus tadqiq obyekti bo'lmagan. Tadqiqotning mazkur bo'limida o'zbek tili siyosiy diskursining xususiyatini ta'minlovchi vositalarni nafaqat sanoqli matnlar misolida an'anaviy tahlil qilish, balki mazkur diskursga oid katta hajmli materiallarni statistik va korpus usulida tahlil qilish, tahlil natijalarini ikkilamchi tahlil qilish hamda siyosiy diskursning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatuvchi leksik (jumladan, metaforik), morfologik,

sintaktik xususiyatlarini o'rganish maqsad qilingan. O'zbek tili siyosiy diskursini tahlil qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning turli mavzulardagi nutqi obyekt sifatida tanlangan. Kuzatilgan tadqiqotlarda tadqiq obyekti kengroq bo'lib, biz tadqiq obyektini chegaralashni ma'qul ko'rdik.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Turli tillarda siyosiy diskursga oid tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, siyosiy diskursda qator konseptlar muhim o'rin tutadi. Masalan, Ya.Yu.Demkinaning fikriga ko'ra siyosiy diskursda quyidagi konseptlar muhim o'ringa ega:

- 1) inson tajribasi asosida hosil bo'lgan dono hukmlarning so'z bilan ifodalangan birliklari;
- 2) siyosiy bilimlarni tushunish, anglashga oid birliklari;
- 3) madaniyatning muhim qismlari;
- 4) ijtimoiy-siyosiy birliklar.[1,16]

Quyidagi konseptlar siyosiy diskurs doirasiga kiritiladi:

- siyosiy faoliyat (hokimiyat, hokimiyat uchun kurash);
- siyosat subyektlari (siyosatchi, xalq, jamiyat, prezident, parlament, senat, vazirlar mahkamasi; bu konseptlar siyosiy diskursning tuzilishini belgilaydi);
- siyosiy tizimlar va davlatchilik shakllari (davlat, millat, fuqarolik jamiyati, imperiya, qirollik, vatan, respublika);
- siyosiy yo'nalishlar (liberalizm, demokratiya, totalitarizm, fashizm), bu konseptlar siyosiy diskursning ijtimoiy-madaniy tomonini belgilaydi;
- siyosiy qadriyatlar (tenglik, adolat, erkinlik, vatanparvarlik, millatchilik, bag'rikenglik, baynalmilalizm)[2,51].

O'.Shukurovning fikriga ko'ra, O'zbekiston saylov kompaniyalaridagi siyosiy munozaralarning nazariy asoslari siyosiy aloqalarni tahlil qilish bilan bog'liq bo'lgan turli tushuncha va nazariyalarni qamrab oladi. Jumladan:

1. Diskursiv tahlil.
2. Siyosiy aloqa.
3. Freyming nazariyasi.
4. Nutqni tanqidiy tahlil qilish.
5. Sotsiolingvistika.
6. Identifikatsiya siyosati.
7. Siyosiy ritorika.
8. Hokimiyat va mafkura.[3,51]

O'.Shukurovning tahlillari shuni ko'rsatadiki, siyosiy diskursda berilgan savolga javob berishda savolning qanday so'roq gapni hosil qiluvchi vosita yordamida yasalgani ham ahamiyatli o'ringa ega. Chunki so'roq olmoshlari yordamida hosil bo'lgan so'roq gaplar bilan so'roq yuklamalari va so'roq ohangi yordamida hosil bo'lgan so'roq gaplar qanday javob talab qilishi bilan farq qiladi. Jumladan, so'roq gaplar so'roq olmoshlari yordamida hosil bo'lgan bo'lsa, so'roq olmoshi so'roqqa javob bo'luvchi so'zni talab qiladi. Siyosiy munozarada savol-javoblarning tarkibiy tuzilishi siyosiy muloqotning mazmuni va yo'nalishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotchi to'g'ri xulosaga kelganidek, mazkur siyosiy munozaraning qaysi jihatlari ko'rilishini, qaysi dalillar ilgari surilishini va fikr almashishning umumiy mantig'i qanday tashkil etilishini aniqlashi mumkin.[4,45].

O'.Shukurov siyosiy diskursni o'rganar ekan, unda so'zlovchi va tinglovchi pozitsiyasi, manipulyatsiya, gaplarning tuzilishi va mazmuni va uning diskursni shakllantirishdagi o'rnini tahlil qilgan, jumladan shunday xulosaga kelgan: "Siyosiy diskurs aniq perlokutiv bo'yoqdor bo'ladi. Unda boshqa diskurslardan farq qilib g'oyaviy tus yetakchilik qiladi. Siyosiy diskursning asosiy maqsadi hokimiyatni egallash, ushlab turish va rivojlantirishga qaratilgan strategiyani aks ettiradi. Bu o'rinda nutqiy ta'sirning o'rni beqiyos. Tarixga nazar tashlasak, ko'p siyosiy arboblarning voizlik potensiyalari yuqori bo'lganini ko'ramiz. O'zbekistonda siyosiy diskurs taraqqiyotida bir necha qatlam sintezlashganligi kuzatildi: sharqona, ruscha va g'arbona. Bu qatlamlarni o'zaro qiyoslash, ilg'or tomonlarini ajratib ko'rsatish, tavsiyalar berish bugungi amaliy tilshunoslik oldida turgan dolzarb vazifadir. Siyosiy diskurs diskurslar ichida aniq belgilangan intensiyasi bilan farqlanib turadi: bu diskursning asosiy maqsadi hokimiyat – hokimiyat uchun kurash, uni qo'lga kiritish va saqlab turishdir. Mana shu jarayon siyosat deb atalib, uning lisoniy tarafi o'ziga xos. Siyosiy diskurs

TILSHUNOSLIK

ijtimoiy jarayonlarning psixologik qabullanishiga ta'sir o'tkazadi. Tilshunoslik, sotsiologiya, psixologiya va siyosatshunoslik kabi bir qancha fanlarni qamrab olgan siyosiy tilshunoslik sohasi siyosiy nutqning murakkab va qiziqarli jarayonini o'rganadi"[5.92].

NATIJA VA MUHOKAMA

Siyosiy munozaralar hamda siyosatchilarning nutqlarida stereotip konseptlarni qamrab olgan "xalq" konsepti quyidagilarni qamrab oladi: "avlod", "davlat", "fuqarolar", "rezidentlar", "jasorat", "birlik", "tarix" kabilar ta'sirli vositalar bo'lib, insonlarni o'z dasturi uchun xalqning ahamiyati va ustuvorligini ta'kidlaydigan siyosatchi tomoniga tortadi. Mazkur konsept ko'p qirrali bo'lib, madaniyat va assotsiatsiya asoslari, hissiyot, baho, milliy obrazlarni o'z ichiga oladi[6,88].

Siyosiy lingvistika xalq siyosiy lisoniy ongining muhim unsurlarini aks etuvchi konseptlarni o'rganadi. Tadqiqotchilar siyosiy tushunchalarni qamrab oluvchi siyosat, siyosatchi, hokimiyat, xalq, hukumat, qiziqish kabi konseptlarni ko'rsatishadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, siyosiy kontseptlar turli millatlar siyosiy olam lingvistik manzarasini tasvirlashga yordam beradi. Umuminsoniy, milliy, sinfiy va individual konseptlar siyosiy konseptual sohani belgilab beradi. Siyosiy diskursning universal konsept va konstantalari sifatida "Vatan", "ona", "iymon", "sevgi", "do'stlik", "oila", "erkinlik", "kosmos", "vaqt", "sabab" kabi fundamental konseptlarni ko'rsatish mumkin. Chunki aynan konstanta-konseptlar xalqning olam lisoniy manzarasini ko'rsatadi. Siyosiy nutqni o'rganish muayyan millat vakili, saylovchining xulq-atvorini bashorat qilish, millatlararo muloqot, saylovlar natijasini modellashtirish, millatlararo nizolardan qochish imkonini beradi.

Quyida siyosiy diskursga oid matnlar tahlilini keltiramiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashi majlisidagi nutqi" sarlavhali matn tahlilida quyidagi natija hosil bo'ldi.

Umumiy so'zlar soni	850
Unikal so'zlar miqdori	582
Ahamiyatli so'zlar soni	798
Nomuhim so'zlar miqdori	39

1-jadval. "Oliy Yevro Osiyo iqtisodiy kengashi majlisidagi nutqi" leksik-semantik qatlam tahlili

So'z	Miqdor	Chastota, %
Yevro Osiyo	10	1.18
Iqtisodiy	9	1.06
Rossiya	5	0.59
O'zbekiston	5	0.59
Qo'shma	5	0.59
Mamlakatlarimiz	4	0.47
Sanoat	4	0.47
Qabul qilish	4	0.47
Hamkorlik	4	0.47
Ittifoqi	3	0.35
Prezidenti	3	0.35
Rivojlantirish	3	0.35
Transport	3	0.35
Elektron	3	0.35
Qo'llab-quvvatlash	3	0.35
Hamkorlikni	3	0.35

Aytish mumkinki, siyosiy diskursga oid Oliy Majlis yoki Qonunchilik palatasiga murojaatnoma, inauguratsiya marosimidagi nutq kabi janrlarda o'ziga xos leksik va nutqiy birliklar hamda sintaktik qurilmalar ishtirok etadi. Bunday diskursdagi gaplarning kesimida morfologik shakllar o'ziga xos stilistik vazifa bajaradi: morfologik shakllar "birgalikda bajarish", "minnatdorlik"

kabi ma'nolarni ifodalab, uslubiy bo'yoqdorlikni ta'minlaydi, so'zlovchining yashirin maqsadini bildirishga xizmat qiladi.

№	So'z va termin	Sodda birikma	Murakkab birikma
1	Deputat	Vazirlar mahkamasi	"mening fikrim" veb-portali
2	Jamiyat	Demokratik tamoyillar	Davlat boshqaruvi akademiyasi
3	Palata	Deputat so'rovi	Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti
4	Saylovchilar	Deputatlik o'quvlari	Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining parlamentlararo assambleyasi
5	Spiker	Keng jamoatchilik	Mustaqil davlatlar hamdo'stligiga a'zo mamlakatlar
6	So'rov	Konstitutsiyaviy huquq	Oliy majlis qonunchilik palatasi deputati
7	O'zbekiston	Qonun loyihalari	Parlament va deputat so'rovlari
8	Fraksiyalar	Qonunchilik palatasi	Parlamentlararo hamkorlik guruhi
9	Fuqaro	Quy palata	Saylovchilarning yagona elektron ro'yxati
10	Xalq	Parlamentlararo assambleyasi	Siyosiy partiyalar dasturlari
11	Hukumat	Parlamentlararo birlashmalar	Sud mustaqilligini ta'minlash
12		Parlamentlararo ittifoq	Sud-huquq masalalari qo'mitasi
13		Saylov jarayoni	Xalqaro parlamentlararo aloqalar
14		Saylov kodeksi	Huquqni muhofaza qilish organlari
15		Saylov natijasi	
16		Siyosiy kurash	
17		Siyosiy partiyalar	
18		Tashkiliy-huquqiy asos	
19		Xalq vakillari	
20		Xalqaro reytinglar	
21		Xalqaro shartnomalar	
22		Huquqshunos olim	
23		Yangi parlament	

*Shu maqsadda fermer va dehqonlar daromadini 2 barobar ko'paytirish uchun zarur sharoitlarni yaratamiz, qishloq xo'jaligining yillik o'sish sur'atini kamida 5 foizga **yetkazamiz**.*

*Bunda biz, avvalo, aholi salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladigan xalqchil sport tizimini **tushunamiz**.*

*Shu bois xotin-qizlarimizning bandligini ta'minlash, davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rni va nufuzini yanada oshirish, ularning o'z salohiyatini namoyon etishlari uchun sharoitlarni kengaytirish, gender tenglik, oila, onalik va bolalikni himoya qilish borasidagi ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarish maqsadida Milliy dastur **qabul qilamiz**.*

Shundek qilib, diskursni tushunish va tahlil qilish nafaqat tilshunoslar, balki til va muloqotni o'rganuvchi boshqa fanlar vakillari uchun ham muhimdir.

XULOSA

Yuqoridagi matn tahlilidan ko'rinib turibdiki, mazkur matnda Yevroosiyo, iqtisodiy, Rossiya, O'zbekiston, qo'shma, mamlakat, sanoat, qabul qilish, hamkorlik, ittifoq, prezident, rivojlantirish, transport, elektron, qo'llab-quvvatlash, hamkorlik kabi leksik birliklar semantik yadroni tashkil etadi. Davlat rahbarlarining turli mavzudagi nutqi davlat siyosati bilan bog'liq bo'lgani sababli o'zbek tili siyosiy diskursi leksik birliklari, sintaktik qurilmalarining keng qamrovli ekanligini kuzatish imkoni paydo bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Демкина Я.Ю. Концепты-константы политического дискурса // Дискурс. 2020. б. 16, № 1 (Discourse. 2020, vol. 6, no. 1).

2. Shukurov O'. Siyosiy diskurs: nazariy asoslari va kommunikativ strategiyasi: filol. fan. fals. dokt. (PhD) disser. avtoref. – Andijon, 2023. – 51 b.

3. Shukurov O'. Siyosiy diskurs: nazariy asoslari va kommunikativ strategiyasi: filol. fan. fals. dokt. (PhD) disser. avtoref. – Andijon, 2023. – 51 b.

TILSHUNOSLIK

4. Shukurov O'. Siyosiy diskurs: nazariy asoslari va kommunikativ strategiyasi: filol. fan. fals. dokt. (PhD) disser. avtoref. – Andijon, 2023. – 45 b.
5. Демкина Я.Ю. Концепты-константы политического дискурса // Дискурс. 2020. 92 б, № 1 (Discourse. 2020, vol. 6, no. 1).
6. Сайфуллаев Н. Ижтимоий-сиёсий терминлар тушунчаси ва талқини // Innovative Development in Educational Activities. Volume 2 | Issue 12 | 2023. – Б. 88.
7. Демкина Я.Ю. Концепты-константы политического дискурса // Дискурс. 2020. Т. 6, № 1 (Discourse. 2020, vol. 6, no. 1).
8. <https://president.uz/uz/lists/view/7221>